ТЕРМИЗ ДАВЛАТ УНИВЕРСИТЕТИ

PHILOLOGICAL RESEARCH: LANGUAGE, LITERATURE, EDUCATION

FILOLOGIK TADQIQOTLAR: TIL, ADABIYOT, TA'LIM

ФИЛОЛОГИЧЕСКИЕ ИССЛЕДОВАНИЯ: ЯЗЫК, ЛИТЕРАТУРА, ОБРАЗОВАНИЕ

Илмий-инновацион журнал

Jurnal OAK Rayosatining 2022-yil 30-sentabrdagi 325/6-son qarori bilan filologiya fanlari bo'yicha doktorlik dissertatsiyalari asosiy ilmiy natijalarini chop etish tavsiya etilgan ilmiy nashrlar ro'yxatiga kiritilgan

2021-yildan buyon nashr etiladi

2026 / № 2,2

Termiz – 2026

Muassis:
Termiz davlat universiteti

PHILOLOGICAL RESEARCH:
LANGUAGE, LITERATURE, EDUCATION

FILOLOGIK TADQIQOTLAR:
TIL, ADABIYOT, TA'LIM

ФИЛОЛОГИЧЕСКИЕ ИССЛЕДОВАНИЯ:
ЯЗЫК, ЛИТЕРАТУРА, ОБРАЗОВАНИЕ

ILMIY-INNOVATSION JURNAL

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan 2020 yil 19 oktyabrda 1122 raqami bilan ro'yxatga olingan. Matnlarda foydalanilgan misol, ko'chirma va ma'lumotlar aniqligi uchun mualliflar javobgardir. Jurnaldan ko'chirib bosilganda manba qayd etilishi shart.

Bosishga ruxsat etildi: 20.06.2026
Qog'oz bichimi: 70x85
Bosma tabog'i: 5.94
Ofset bosma. Ofset qog'ozi
Adadi: 100
Bahosi kelishilgan narxda
Buyurtma: 155-son

«TerDU bosmaxonasi»da chop etildi
Termiz shahri, Barkamol avlod ko'chasi, 43-uy

Tahririyat manzili:
190111, Termiz shahri,
Barkamol avlod ko'chasi, 43.
Telefon: +998990 377 77 23,
+99895 986 07 77

E-mail:
philologicalresearch@umail.uz
Rasmiy sayt:
https://journaltersu.uz

BOSH MUHARRIR:
Abduqodir TOSHQULOV,
iqtisodiyot fanlari doktori, professor

TAHRIR HAY'ATI:

Bekpo'lat Umurqulov, filologiya fanlari doktori, professor (bosh muharrir o'rinbosari)
Shoxista Maxmaraimova, filologiya fanlari doktori, professor (mas'ul muharrir)
O'ral Xoliyorov, f.f.f.d. (PhD), dotsent (O'zbekiston)
Olmos Ulviy Binnatova, f.f.d., professor (Ozarbayjon)
Karl Rayxl, f.f.d., professor (Germaniya)
Vali Savash yelok, f.f.d., professor (Turkiya)
Dorota Silviya, f.f.f.d. (PhD), dotsent (Polsha)
Zabita Mahammad qizi Teymurlu, filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori, dotsent (Ozarbayjon)
Tarana Imomverdi qizi Xojieva, filologiya fanlari doktori, professor (Ozarbayjon),
Muslihiddin Muhiddinov, f.f.d., professor (O'zbekiston)
Ibodulla Mirzayev, f.f.d., professor (O'zbekiston)
Abdi Mamatov f.f.d., professor (O'zbekiston)
Suyun Karimov f.f.d., professor (O'zbekiston)
Muhammadxon Hakimov, f.f.d., professor (O'zbekiston)
Nafas Shodmonov f.f.d., professor (O'zbekiston)
Dilmurod Quronov, f.f.d., professor (O'zbekiston)
Murodqosim Abdiyev, f.f.d., professor (O'zbekiston)
Baxtiyor Mengliyev, f.f.d., professor (O'zbekiston)
Normat Y o'ldoshev, f.f.d., dotsent (O'zbekiston)
Baxtiyor Xolmuxamedov, f.f.d., dotsent (O'zbekiston)
Bobonazar Murtazayev, f.f.n., dotsent (O'zbekiston)
Asqar Eshmo'minov, f.f.d., professor (O'zbekiston)
Obidjon Shofiyev, f.f.f.d. (PhD), dotsent (O'zbekiston)
Zafar Umurqulov, f.f.d., dotsent (O'zbekiston)
Nurali Amonturdiyev, f.f.f.d. (PhD) (O'zbekiston)
Hakim Ahmedov, f.f.f.d., dotsent (O'zbekiston)
Abdulla Xudoyqulov, f.f.f.d., dotsent (O'zbekiston)
Ahad Shukurov, f.f.f.d., dotsent (O'zbekiston)
Eshnazar Jabborov, f.f.f.d., dotsent (O'zbekiston)
Abdumurod Arslonov, f.f.f.d., dotsent (O'zbekiston)
Sirojiddin Turdimurodov, filologiya fanlari doktori, dotsent (O'zbekiston)
Umida Raximova, f.f.f.d. (PhD) (O'zbekiston)
Gulchehra Begmatova, f.f.f.d. (PhD) (O'zbekiston)
Nargis Qurbonazarova, filologiya fanlari doktori, dotsent (O'zbekiston)
Muyassar Xolova, f.f.f.d., dotsent (O'zbekiston)
Shoira Omonturdiyeva, f.f.d., dotsent (O'zbekiston)
Sherzod Turdiqulov, f.f.f.d. (PhD) (O'zbekiston)
Alibek Omonturdiyev, f.f.f.d. (PhD) (O'zbekiston)
Humayun Nadim Muhammad, f.f.f.d., dotsent (O'zbekiston)

Texnik muharrir: Bahodir To'raliyev

Учредитель:
Термезский государственный университет

PHILOLOGICAL RESEARCH: LANGUAGE, LITERATURE, EDUCATION

FILOLOGIK TADQIQOTLAR: TIL, ADABIYOT, TA'LIM
ФИЛОЛОГИЧЕСКИЕ ИССЛЕДОВАНИЯ: ЯЗЫК, ЛИТЕРАТУРА, ОБРАЗОВАНИЕ

НАУЧНО-ИННОВАЦИОННЫЙ ЖУРНАЛ

Зарегистрировано Агентством информации и массовых коммуникаций при Администрации Президента Республики Узбекистан от 19 октября 2020 года под номером 1122.

Авторы несут ответственность за точность приведенных в текстах примеров, отрывков и данных. Необходимо указывать источник при копировании из журнала.

Разрешено к печати: 20.06.2026
Размер бумаги; 70x85
Печатный лист: 5.94
Офсетная печать. Офсетная бумага
Тираж: 100. Цена договорная
Заказ: 155

Печатано в «Типографии ТерГУ»
ул. Баркамол авлод 43, г. Термез

Адрес редакции:
190111, г.Термез, ул. Баркамол авлод, 43.
Телефон: +998990 377 77 23, +99895 986 07 77

E-mail: philologicalresearch@umail.uz

Официальный сайт: https://journaltersu.uz

ГЛАВНЫЙ РЕДАКТОР:
Абдукадир ТАШКУЛОВ,
доктор экономических наук, профессор

РЕДАКЦИОННАЯ КОЛЛЕГИЯ:

Бекпулат Умуркулов, доктор филологических наук, профессор (зам. главного редактора)
Шохиста Махмараимова, доктор филологических наук, профессор (ответственный редактор)
Урал Холияров, ф.ф.ф.д. (. PhD), доцент (Узбекистан)
Олмос Улвий Биннатова, д.ф.н., профессор (Азербайджан)
Карл Райхл, д.ф.н., профессор (Германия)
Вали Саваш Елок, д.ф.н., профессор (Турция)
Дорота Сильвия, PhD, доцент (Польша)
Забита Магомед кызы Теймурлу, доктор философии по филологии, доцент (Азербайджан)
Тарана Имамверди гызы Хаджиева, доктор наук, профессор (Азербайджан)
Муслихиддин Мухиддинов, д.ф.н., профессор (Узбекистан)
Ибодулла Мирзаев, д.ф.н., профессор (Узбекистан)
Абди Маматов, д.ф.н., профессор (Узбекистан)
Суюн Каримов, д.ф.н., профессор (Узбекистан)
Мухаммадхон Хакимов, д.ф.н., профессор (Узбекистан)
Нафас Шодмонов, д.ф.н., профессор (Узбекистан)
Дилмурод Куронов, д.ф.н., профессор (Узбекистан)
Мурадкасим Абдиев, д.ф.н., профессор (Узбекистан)
Бахтиёр Менглиев, д.ф.н., профессор (Узбекистан)
Нормат Юлдашев, д.ф.н., доцент (Узбекистан)
Бахтиёр Холмухамедов, д.ф.н., доцент (Узбекистан)
Бобоназар Муртазаев, к.ф.н., доцент (Узбекистан)
Аскар Эшмуминов, д.ф.н., профессор (Узбекистан)
Обиджон Шофиев, д.ф.ф.н. (PhD), доцент (Узбекистан)
Зафар Умуркулов, д.ф.н., доцент (Узбекистан)
Нурали Амонтурдиев, д.ф.ф.н. (PhD) (Узбекистан)
Хаким Ахмедов, д.ф.ф.н., доцент (Узбекистан)
Абдулла Худайкулов, д.ф.ф.н., доцент (Узбекистан)
Ахад Шукуров, д.ф.ф.н., доцент (Узбекистан)
Эшназар Джаббаров, д.ф.ф.н., доцент (Узбекистан)
Абдумурод Арслонов, д. ф.ф.н., доцент (Узбекистан)
Сирожиддин Турдимуродов, доктор наук, доцент (Узбекистан)
Умида Рахимова, д.ф.ф.н. (PhD) (Узбекистан)
Гульчехра Бегматова, д.ф.ф.н. (PhD) (Узбекистан)
Наргис Курбаназарова, доктор наук, доцент (Узбекистан)
Муяссар Холова, д.ф.ф.н., доцент (Узбекистан)
Шаира Амонтурдиева, д.ф.н., доцент (Узбекистан)
Шерзад Турдикулов, д.ф.ф.н. (PhD) (Узбекистан)
Алибек Омонтурдиев, д.ф.ф.н. (PhD) (Узбекистан)
Хумаюн Надим Мухаммад, д.ф.ф.н., доцент (Узбекистан)

Технический редактор: Баходир Туралиев

Institutor:
Termez State University

PHILOLOGICAL RESEARCH: LANGUAGE, LITERATURE, EDUCATION

FILOLOGIK TADQIQOTLAR: TIL, ADABIYOT, TA'LIM

ФИЛОЛОГИЧЕСКИЕ ИССЛЕДОВАНИЯ: ЯЗЫК, ЛИТЕРАТУРА, ОБРАЗОВАНИЕ

SCIENTIFIC-INNOVATIONAL JOURNAL

Registered by the Agency for Information and Mass Communications under the President's Administration of the of the Republic of Uzbekistan on October 19, 2020 under number 1122.

The authors are responsible for the accuracy of the examples, passages and data provided in the texts. The source must be specified when copying from the journal.

Approved for printing: 20.06.2026
Size of the paper: 70x85
Printed sheet: 5.94. Offset printing.
Offset paper. Circulation: 100
Price is negotiable
Order: 155. Printed at the «Printing House of the TerSU»
43, Barkamol avlod str. Termez city.

Address of Editorial Office:
190111, Barkamol avlod str., 43, Termez city.
Phone: +998990 377 77 23, +99895 986 07 77

E-mail:
philologicalresearch@umail.uz

Official website:
https://journaltersu.uz

EDITOR IN-CHIEF:
Abdukodir TASHKULOV,
doctor of economic sciences, professor

EDITORIAL BOARD:

Bekpulat Umurkulov, doctor of philological sciences, professor (Uzbekistan) (deputy chief editor)
Shohista Makhmaraimova, doctor of philological sciences, professor (Uzbekistan) (editor-in-chief)
Ural Kholiyorov, Doctor of Philosophy in Philology, Associate Professor (Uzbekistan)
Olmos Ulviy Binnatova, doct.of philol. sciences, professor (Azerbaijan)
Karl Rayxl, doct.of philol. sciences, professor (Germany)
Vali Salvash Elok, doct. of philol. sciences, professor (Turkey)
Dorota Silvia, PhD, associate professor (Poland)
Zabita Magomed kyzy Teymurlu, Doctor of Philosophy in Philology, Associate Professor (Azerbaijan)
Tarana Imamverdi gizi Khadzhieva, Doctor of Sciences, Professor (Azerbaijan)
Muslihiddin Mukhiddinov, doct.of philol. sciences, professor (Uzbekistan)
Ibodulla Mirzaev, doct.of philol. sciences, professor (Uzbekistan)
Abdi Mmatov, doct.of philol. sciences, professor (Uzbekistan)
Suyun Karimov, doct.of philol. sciences, professor (Uzbekistan)
Muhammadkhon Khakimov, doct.of philol. sciences, professor (Uzbekistan)
Nafas Shodmonov, doct.of philol. sciences, professor (Uzbekistan)
Dilmurod Kuronov, doct. of philol. sciences, professor (Uzbekistan)
Muradkasim Abdiyev, doct. of philol. sciences, professor (Uzbekistan)
Bakhtiyor Mengliev, doct. of philol. sciences, professor (Uzbekistan)
Normat Yuldashev, doct. of philol. sciences, associate professor (Uzbekistan)
Bakhtiyor Kholmukhamedov, doct. of philol. sciences, associate professor (Uzbekistan)
Bobonazar Murtazaev, cand.of philol. sciences, associate professor (Uzbekistan)
Askar Eshmuminov, doct. of philol. sciences, professor (Uzbekistan)
Obidjon Shofiev, PhD, associate professor (Uzbekistan)
Zafar Umurkulov, doct. of philol. sciences, associate professor (Uzbekistan)
Nurali Amonturdiev, PhD (Uzbekistan)
Hakim Akhmedov, Doctor of Philosophy in Philology, Associate Professor (Uzbekistan)
Abdulla Khudaykulov, Doctor of Philosophy in Philology, Associate Professor (Uzbekistan)
Ahad Shukurov, Doctor of Philosophy in Philology, Associate Professor (Uzbekistan)
Eshnazar Jabbarov, Doctor of Philosophy in Philology, Associate Professor (Uzbekistan)
Abdumurod Arslonov, Doctor of Philosophy in Philology, Associate Professor (Uzbekistan)
Sirojiddin Turdimurodov, Doctor of Sciences, Associate Professor (Uzbekistan)
Umida Rakhimova, Doctor of Philosophy in Philology (Uzbekistan)
Gulchekhra Begmatova, Doctor of Philosophy in Philology (Uzbekistan)
Nargis Kurbanazarova, Doctor of Sciences, Associate Professor (Uzbekistan)
Muyassar Kholova, Doctor of Philosophy in Philology, Associate Professor (Uzbekistan)
Shoira Omonturdiyeva, doct. of philol. sciences, associate professor (Uzbekistan)
Sherzod Turdikulov, Doctor of Philosophy in Philology, Associate Professor (Uzbekistan)
Alibek Omonturdiev, Doctor of Philosophy in Philology (Uzbekistan)
Humayun Nadim Muhammad, Doctor of Philosophy in Philology, Associate Professor (Uzbekistan)

Technical editor: Bakhodir Turaliyev

МУНДАРИЖА

TILSHUNOSLIK

ШАКЕНОВА МАЙГУЛЬ ТУЛЕГЕНОВНА
Прецедентные имена как маркеры культурной памяти в современных медиа Казахстана 7

КОДИРОВА МУКАДДАС ТОГАЕВНА
Синергетическая трансформация узбекского и английского бизнес-дискурса 11

BAYNAZAROV ZOKIR
«Chig'atoy gurungi» va uning o'zbek tilshunosligi tarixidagi o'rni 16

XOLNAZAROV UMID ERKINOVICH
Disleksiya neyrolingvistik muammo sifatida 22

RAHMATOVA GAVHAR OMONOVNA
«Devoni lug'ati-t-turk» asaridagi jangnoma she'rlar va ularning semantikasi 28

RAHIMOV USMONJON ERGASHEVICH
Pragmalingvistika va unga bog'liq hodisalarni antroposentrik nazariya asosida tadqiq etish 33

ABDULLAJONOVA MADINA TO'LANBOY QIZI
Disgrafiyaga xos xatolarning yoshga bog'liq dinamikasi 39

КАЛДЫГОЗОВА С.Е.
Термины-эпонимы в психологических блог-дискурсах 46

ASADOV ALISHER BAHODIROVICH
Preventiv nutqiy aktlarning lingvopragmatik va sotsiopragmatik jihatlari 39

ERIMMATOVA ZUXRA AZIMBOYEVNA
Qo'lyozmalarda kotiblarning (nusxa ko'chiruvchilarning) eng muhim amallari 54

ELOVA DILRABO QUDRATILLAYEVNA
Normativ matn talqinida sintaktik qamrovning o'rni 60

NORMO'MINOV SHERZOD TO'YCHIYEVICH
O'zbek shevalarida leksik tanlovning yosh omili: avlodlararo qatlamlanish 65

SAMINOV ABDUMALIK INOMJONOVICH
Oksyumoronning sintaktik-stilistik va lingvopoetik xususiyatlari (Shavkat Rahmon she'riyati misolida) 68

FAYZIYEVA AZIZA ANVAROVNA
Axloqiy-hissiy konseptlar: sof hissiy va sof axloqiy konseptlardan farqlanish mezonlari 72

ABDULLAYEV DAVRONBEK DILMUROD O'G'LI
«Maoniy an-nahv» kitobida «na'ti maqtu'» (uzilgan sifat) hodisasi 76

BABAXANOVA DILAROM AXMATXANOVNA
Ona tili boyligi – madaniy nutqni shakllantiruvchi vosita 79

ИСЛОМОВА ДИЛНОЗА УЙГУН КИЗИ
Понятие и функции социальной рекламы в обществе 82

ASATULLOYEVA MUHAYYO ALISHER QIZI
Til birliklarining pragmalingvistik xususiyatlari: informema va pragmema oppozitsiyasida frazeologik birliklarning o'rni 86

МУНДАРИЖА

MURODULLAYEVA SARVINOZ YORQIN QIZI
Xudoyberdi To'xtaboyev hikoyalarida milliy-madaniy birliklar tarjimasi:
milliy koloritni saqlash strategiyalari 90

O'ROQOVA MUBORAK
Sud-tibbiy ekspertiza matnlarining diskursiv xususiyatlari 94

TURSINBAYEVA SHAXLOXON ALIMBAYEVNA
Badiiy matnda sharqona muloqot etiketi va nutqiy strategiyalar 94

XALIQULOVA MUSHARRAF EGAMNAZAR QIZI
Ijtimoiy reklama diskursida til, ma'no va madaniyat munosabati 102

ABDUMUMINOVA DILNOZA XOMIT QIZI
Ingliz tilida holat fe'llarining metaforik kengayishi 105

TURAEVA ORASTA
Ways of expressing irony in the heroic dramas of John Dryden 109

ADABIYOTSHUNOSLIK

RAHMATOVA GAVHAR OMONOVNA,
SOTVOLDIYEV SIROJIDDIN MAXAMMADDIN O'G'LI
«Devonu lug'ati-t-turk» asaridagi she'riy uzindilar badiiyati 116

RAIMOVA SAYYORA ZAITOVNA
Intertekstual birliklarning poetik vazifasi 123

TASHPULATOV MUXRIDDIN RAXMATULLA O'G'LI
Jadid dramaturgiyasining g'oyaviy-badiiy xususiyatlari 127

FAYZULLAYEVA NIGINA SUR'AT QIZI
Badiiy tafakkurda jinoyat va psixologiya o'zaro aloqadorligining estetik talqini 132

БУРАНОВА ЖАМИЛА АЛИЕВНА
Влияние мифологических мотивов создания и разрушения на сюжет романа 135

МУҲАММАД АБДУЛЛАЕВ
Убайдий ижодида салафлари ижоди таъсири 139

RAMAZON ABDULLAEV
Muizziy qasidalarda lirik mazmun va badiiy mahorat 142

TA'LIM

XALILOVA MUYASSARXON TOLIPOVNA
Bog'lanishli matn yaratish malakasini rivojlantiruvchi zamonaviy metodlar 145

tain grammatical and syntactic devices may expand or restrict the scope of a legal norm and, in some cases, give rise to different interpretations. On this basis, the article discusses the possibilities of a linguo-logical approach alongside traditional linguistic description in the analysis of legal documents.

Резюме. В статье анализируется роль синтаксического охвата в толковании нормативно-правовых текстов на примере статей 370–377 Налогового кодекса Республики Узбекистан. На основе анализа положений кодекса показано, как конкретные грамматические и синтаксические средства, союзы и отсылочные конструкции могут изменять объем нормы и допускать двоякое толкование. На этом основании обсуждаются методологические возможности лингво-логического подхода в сочетании с традиционным лингвистическим описанием юридических документов.

Filologik tadqiqotlar: til, adabiyot, ta'lim. 2026; 5
ISNN: 2181-1741 (Print)
ISNN: 2181-1725

O'ZBEK SHEVALARIDA LEKSIK TANLOVNING YOSH OMILI: AVLODLARARO QATLAMLANISH

Normo'minov Sherzod To'ychiyevich,
Samarqand davlat pedagogika instituti
o'zbek tili va adabiyoti kafedrasi dotsenti

Zamonaviy tilshunoslikning antropotsentrik yo'nalishi tilni uning egasi, shaxs bilan mushtaraklikda o'rganishni talab qiladi. Bu yondashuvda har bir so'zlovchi o'z nutqida ijtimoiy mansubligini, hududiy kelib chiqishini va avlodlararo tajribasini namoyon etadi. Dialektal lisoniy shaxs ana shu belgilarning yig'indisi sifatida shakllanadi va uning tavsifi bir necha ijtimoiy o'lchov orqali amalga oshiriladi.

Sotsiolingvistikada yosh so'zlovchining lisoniy tanlovini belgilovchi asosiy o'zgaruvchilardan biri sanaladi. U.Labov tadqiqotlari nutqiy variativlik yosh guruhlari bo'yicha izchil taqsimlanishini, har bir avlod o'z davrining til holatini saqlashini o'z tadqiqotlarida ta'kidlagan[1]. P.Ekert esa variativlikni ijtimoiy ma'no ifodasi sifatida talqin qilib, yosh omilini guruh o'zligi bilan bog'lagan[2]. Bu qarashlar bir jamoaning turli avlodlari nutqini qiyoslash orqali dialektning ichki dinamikasini aniqlash imkonini beradi.

O'zbek dialektologiyasida shevalar asosan an'anaviy struktura, ya'ni hududiy va tarixiy-genetik mezonlar asosida tasniflangan, leksik qatlam ko'pincha statik holatda o'rganilgan. So'zlovchining yoshi leksik tanlovga qanday ta'sir qilishi alohida tadqiqot predmeti bo'lmagan. Holbuki dala kuzatuvlari bir qishloq doirasida ham avlodlar nutqi sezilarli farqlanishini ko'rsatadi. Ayrim leksik birliklar faqat keksalar nutqida saqlanadi, boshqalari esa yoshlar nutqida ko'proq uchraydi. Maqolaning maqsadi Samarqand, Jizzax va Qashqadaryo, Surxandaryo viloyatlaridan to'plangan dala materiallari asosida uch avlod nutqidagi leksik qatlamlarni qiyoslab, yosh omilining dialektal lisoniy shaxs tavsifidagi o'rnini aniqlash hisoblanadi.

Til va jamiyat munosabatlarini o'rganuvchi sotsiolingvistika fani XX asrning ikkinchi yarmida mustaqil yo'nalish sifatida shakllandi. U.Labovning shahar aholisi nutqi bo'yicha tadqiqotlari lisoniy variativlik tasodifiy emasligini, u so'zlovchining ijtimoiy belgilariga muvofiq tartiblanishini ko'rsatdi. Olim ayni bir hududda yashovchi turli avlod vakillari nutqini qiyoslab, til o'zgarishini real vaqt kechishini kutmasdan aniqlash mumkinligini asoslagan. Bu usul keyinchalik «ko'rinma vaqt» tamoyili nomini oldi. Turli yoshdagi so'zlovchilar nutqi bir paytning o'zida tilning ketma-ket bosqichlarini aks ettiradi.

Lisoniy shaxs nazariyasi til birligini uni qo'llovchi

[1] Labov W. Sociolinguistic Patterns. – Philadelphia: University of Pennsylvania Press, 1972. – P. 178–180.
[2] Eckert P. Three Waves of Variation Study // Annual Review of Anthropology. – 2012. – Vol. 41. – P. 87–90.

subyekt orqali o'rganadi. Y.Karaulov lisoniy shaxsning uch sathini, verbal-semantik, lingvokognitiv va motivatsion sathlarni ajratgan[1]. Yosh omili motivatsion sath bilan bevosita bog'lanadi, chunki so'zlovchining qadriyatlari va nutqiy odatlari uning avlodlararo tajribasidan kelib chiqadi. Tadqiqot materiali Samarqand, Jizzax va Qashqadaryo, Surxandaryo viloyatlarining qishloq va shahar aholisi nutqidan narrativ-biografik intervyu va ishtirokchi kuzatuv usulida to'plandi. Informantlar uch yosh guruhiga ajratildi: keksa avlod (60 yosh va undan katta), o'rta avlod (40–59 yosh) va yosh avlod (39 yosh va undan kichik).

Shevaning barqaror qatlamlari keksa avlod nutqida to'liq namayon bo'lishini dala tadqiqotlarimizda kuzatdik. Bu guruhda adabiy tilda uchramaydigan yoki juda kam qo'llaniladigan leksik birliklar, shuningdek an'anaviy muloqotga xos qoliplashgan iboralar salmoqli o'rin egallaydi. Quyidagi namunalar shu xususiyatni ko'rsatadi.

[*Qoo, Rosiyadan keptima?*]. (Voy, Rossiyadan kelibdimi?). |*Inf: SM-P | 73 yosh, erkak, bog'bon* |.

Qoo undov so'zi kutilmagan xabar eshitilganda ajablanish ma'nosini ifodalaydi. Bu birlik yosh avlod nutqida deyarli uchramaydi. Uning o'rnini adabiy tildagi yoki o'zlashma hissiy undovlar egallagan. Undov so'zlarning avlodlar bo'yicha almashinuvi nutqning emotsional qatlamida ham yosh tafovuti borligini ko'rsatadi.

[*Bugun bormay qo'yag'ay, jo'n o'tir*]. (Bugun bormay qo'ya qol, tinch o'tir). |*Inf: SD-U | 77 yosh, erkak, chorvador* |.

Jo'n o'tir iborasi «tinch o'tir, bezovta qilma» ma'nosini bildiradi. *Jo'n* so'zining bu vazifadagi qo'llanishi keksa avlod nutqiga xos; o'rta va yosh avlod ayni ma'noni boshqa birliklar bilan ifodalaydi. Bunday farq leksemaning avlodiy chegaralanishini ko'rsatadi.

[*O'tirikchi bo'ma, tuvrisini ayt*]. (Yolg'onchi bo'lma, to'g'risini ayt). |*Inf: JZ-G' | 83 yosh, ayol, uy bekasi* |.

O'tirikchi - «yolg'onchi» ma'nosidagi dialektal birlik hisoblanadi. Bu so'z adabiy tildagi *yolg'onchi* leksemasi bilan sinonim sifatida muloqotdan chiqib bormoqda va asosan keksa avlod nutqida saqlanmoqda. Birlikning iste'moldan chiqib borishi adabiy til ta'sirida dialektal leksikaning torayish jarayonini aks ettiradi.

An'anaviy nutqning alohida belgilardan biri diniy-axloqiy mazmunli qoliplashgan iboralar faol va doimiy qo'llanadi. *Ollohga shukur, xudo deb o'tiribmiz, esanlik-tuvallik bo'sin, boshing omon bo'sin* kabi iboralar bu guruhda muntazam takrorlanadi va hol-ahvol so'rashish, tilak bildirish, rozilik ifodalashning an'anaviy qolipini tashkil etadi. Bu iboralar shunchaki leksik birlik emas, balki keksa avlodning dunyoqarashi va muloqot odobini ifodalovchi nutqiy markerlar sanaladi. Yosh avlod nutqida bu kabi iboralar deyarli uchramaydi, ba'zan qisqargan yoki neytral shakllar bilan almashtiriladi. Keltirilgan misollar keksa avlod nutqida «yo'qolish diskursi» yuzaga kelishini ko'rsatadi. So'zlovchilar ayrim birliklarni «ilgari shunday derdik» izohi bilan tilga oladi va ularning iste'moldan chiqayotganini o'zlari ham sezadi.

O'rta avlod nutqi keksa va yosh qatlamlar orasidagi oraliq holatni egallaydi. Bu guruh shevaning an'anaviy negizini saqlagan holda, ish faoliyati va kundalik turmush orqali kirib kelgan o'zlashmalarni faol qo'llaydi. Natijada ularning nutqida hududiy sheva va o'zlashma qatlam qorishgan aralash kod yuzaga keladi. O'zlashmalar mahalliy sheva fonetikasiga bo'ysunib, o'zgargan talaffuz shaklida o'rnashadi.

[*Elektrik kep qoldi, uchorchikti tekshirib ketti*]. (Elektr inspektori kelib qoldi, elektron hisoblagichni tekshirib ketdi). |*Inf: QD-YB | 46 yosh, erkak, o'qituvchi* |.

Bu nutqda ruscha kasb va texnika atamalari alohida o'rin tutadi. *Elektrik (*elektr inspektori*), shopir* (haydovchi), *uchorchik* (elektron hisoblagich), *duxtir* (shifokor) kabi birliklar mehnat faoliyati bilan bog'liq tushunchalarni ifodalaydi va so'zlovchining ish tajribasini ko'rsatadi. Bu so'zlar adabiy tildagi muqobillari (*haydovchi, shifokor*) bilan yonma-yon yashaydi, ammo kundalik muloqotda ko'pincha o'zlashma shakl ustun keladi.

O'zlashmalarning bu qatlamdagi asosiy belgisi, fonetik moslashuv. *Shopir* shaklida ruscha so'zning urg'usiz unlisi shevaga xos talaffuzga, *duxtir* shaklida undosh birikma mahalliy artikulyatsiyaga moslashgan. *Uchorchik* esa asl so'zning bo'g'in tuzilishini sheva tovush tizimiga muvofiq qayta shakllantirgan. Bunday moslashuv o'zlashma so'z xorijiy til birligi sifatida emas, sheva tarkibiga singgan birlik sifatida qo'llanishini ko'rsatadi. Keksa avlodda o'zlashmalar nisbatan kam, yosh avlodda esa ularning o'rnini zamonaviy jargon egallay boshlaydi. Shu jihatdan o'rta avlod nutqi dialektal leksikaning o'tish bosqichini namoyish etadi.

Yosh avlod nutqi shevaning eng harakatchan qatlamini tashkil etadi. Bu guruh arxaik birliklardan uzoqlashib, zamonaviy ijtimoiy muhit, ta'lim va raqamli muloqot ta'sirida yangi leksik birliklarni faol yaratadi va o'zlashtiradi. Ularning nutqida jargon, sleng va metaforik ko'chish asosida yasalgan birliklar ustunlik qiladi.

[*Bu prikol-ku, vauu, chotki bo'pti*]. (Bu qiziq-ku, voy, ajoyib bo'libdi). |*Inf: SM-S | 19 yosh, erkak, talaba* |.

[1] Караулов Ю.Н. Русский язык и языковая личность. – М.: Наука, 1987. – С. 36–38.

Yosh avlod jargonining bir qismi kundalik so'zlarga yangi ma'no yuklash orqali shakllanadi. *Muzlatmoq* fe'li dastlabki «sovutib qotirmoq» ma'nosidan «biror ishni vaqtincha to'xtatish» ma'nosiga ko'chgan. Bunday birliklar guruh ichida tez tarqaladi va yosh avlod muloqotining belgisiga aylanadi.

Bu qatlamning o'zlashmalari ikki manbadan oziqlanadi. Birinchi guruh rus va xalqaro so'zlashuv nutqidan kirgan: *prikol* («qiziq, kulgili holat»), *chotki* («ajoyib, zo'r»), *vauu* (hayrat undovi) hissiy baho va munosabat ifodalaydi. Ikkinchi guruh inglizcha birliklar va shaklning faollashuvi bilan bog'liq: *trend* («ommalashgan yo'nalish») to'g'ridan-to'g'ri o'zlashma bo'lsa, *yorivoreyshin* o'zbekcha *yorib yubormoq* iborasini inglizcha so'zga o'xshatib talaffuz qilish orqali yasalgan til o'yinidir. Bu birlik chet so'zni emas, ona til negizini chet til qolipiga solib, yumoristik ta'sir yaratadi.

Avlodlar kesimida o'zlashma manbalarining taqsimlanishi muayyan tarixiy va ijtimoiy omillarning ta'sirini aks ettiradi. Keksa avlod diniy-axloqiy iboralarni, o'rta avlod ruscha kasb atamalarini saqlagan bo'lsa, yosh avlod so'zlashuv va ijtimoiy tarmoqlar birliklarini o'zlashtiradi. *Krutoy* va *chotki* kabi baho birliklarining tez tarqalishi yoshlar nutqi avlodlararo uzatish orqali emas, guruhlararo va hududlararo aloqada shakllanishini ko'rsatadi. Yangi ma'nolar ko'pincha jismoniy harakat yoki holatdan ijtimoiy bahoga ko'chish yo'li bilan hosil bo'ladi. Bu jarayon dialektal leksikaning yangilanish qobiliyatini, ayni paytda yosh avlodning til ijodkorligini ko'rsatadi.

Uch yosh guruhi nutqidan olingan materiallar leksik tanlovning izchil farqlanishini ko'rsatadi. Quyidagi jadval bu farqlarni umumlashtiradi.

1-jadval. **Avlodlar bo'yicha leksik qatlamlanish**

Avlod guruhi	Ustun leksik qatlam	Tipik birliklar	Ijtimoiy-psixologik asos	Dialektal bosqich
Keksa avlod (60+)	Arxaik leksika, qoliplashgan marker	*qoo, jo'n o'tir, o'tirikchi, ollohga shukur*	An'anaviy dunyoqarash, muloqot odobi	Saqlanish
O'rta avlod (40–59)	Aralash kod, moslashgan o'zlashma	*elektrik, shopir, duxtir, uchorchik*	Mehnat tajribasi, ijtimoiy faollik	O'tish
Yosh avlod (39–)	Jargon, sleng, til o'yini	*muzlatmoq, prikol, chotki, yorivoreyshin*	Guruh o'zligi, raqamli muloqot, til ijodkorligi	Yangilanish

Jadvaldan ko'rinadiki, yosh ulg'ayishi bilan leksik tanlov innovatsion qatlamdan barqaror qatlamga qarab siljiydi. Har bir avlod nutqi muayan davrning lisoniy manzarasini o'zida mujassamlashtiradi. Keksa avlod nutqi shevaning o'tmish holatini, yosh avlod nutqi uning hozirgi yo'nalishini aks ettiradi. Shu sababli bir jamoaning uch avlodi sinxron holatda dialektning uch ketma-ket bosqichini namoyish etadi. Bu kuzatuv U.Labov asoslagan «ko'rinma vaqt» tamoyilining o'zbek dialektal materialidagi tasdig'idir[1].

O'zbek shevalarida leksik tanlov so'zlovchining yoshiga muvofiq izchil farqlanadi. Keksa avlod nutqida arxaik leksika va qoliplashgan-axloqiy marker, o'rta avlodda aralash kod va moslashgan o'zlashmalar, yosh avlodda jargon hamda metaforik yangilanish ustunlik qiladi. Tahlil yosh omilini dialektal lisoniy shaxs tavsifining mustaqil o'lchovi sifatida belgilash mumkinligini ko'rsatdi. Bir jamoaning uch avlodi nutqini qiyoslash shevaning ichki dinamikasini, qaysi birliklar yo'qolayotgani, qaysilari endi paydo bo'layotganini aniqlash imkonini beradi. Avlodlararo qatlamlanish dialektal leksikaning statik tizim emas, doimiy yangilanuvchi jarayon ekanini dalillaydi. Olingan natijalar «til va shaxs mushtarakligi» prinsipining yosh omilidagi ifodasini ochib beradi. So'zlovchining lisoniy tanlovi uning qaysi avlodga mansubligini bevosita aks ettiradi.

Rezyume. Maqolada o'zbek shevalarida leksik tanlovni belgilovchi yosh omili sotsiolingvistik nuqtai nazardan tahlil qilinadi. Samarqand, Jizzax, Qashqadaryo va Surxondaryo viloyatlaridan to'plangan dala materiallari uch yosh guruhi nutqida o'zaro farqli leksik qatlamlarni ko'rsatadi: keksa avlodda arxaik leksika va formulaik iboralar, o'rta avlodda aralash kod, yosh avlodda jargon hamda metaforik yangilanish ustunlik qiladi. Tadqiqot bir jamoaning uch avlodi sinxron holatda dialektning uch tarixiy bosqichini namoyish etishini asoslaydi va yosh omilini dialektal lisoniy shaxs tavsifining mustaqil o'lchovi sifatida belgilaydi.

[1] Labov W. Sociolinguistic Patterns. – Philadelphia: University of Pennsylvania Press, 1972. – 344 P.

Resume. The article analyses the age factor determining lexical choice in Uzbek dialects from a sociolinguistic perspective. Field materials from the Samarkand, Jizzakh, Kashkadarya and Surxandarya regions reveal distinct lexical strata in the speech of three age groups: archaic vocabulary and formulaic expressions in the older generation, mixed code in the middle generation, and jargon with metaphorical renewal in the younger generation. The study demonstrates that three generations of a single community synchronically represent three historical stages of the dialect, establishing the age factor as an independent parameter for describing the dialectal linguistic personality.

Резюме. В статье анализируется возрастной фактор, определяющий лексический выбор в узбекских говорах, с социолингвистической точки зрения. Полевые материалы из Самаркандской, Джизакской, Кашкадарьинской и Сурхандарьинской областей выявляют различные лексические пласты в речи трёх возрастных групп: архаичная лексика и формульные выражения у старшего поколения, смешанный код у среднего, жаргон и метафорическое обновление у молодого. Исследование обосновывает, что три поколения одного сообщества синхронно представляют три исторических этапа развития говора, что позволяет определить возрастной фактор как самостоятельный параметр описания диалектной языковой личности.

Filologik tadqiqotlar: til, adabiyot, ta'lim. 2026; 5
ISNN: 2181-1741 (Print)
ISNN: 2181-1725

OKSYUMORONNING SINTAKTIK-STILISTIK VA LINGVOPOETIK XUSUSIYATLARI

(Shavkat Rahmon she'riyati misolida)

Saminov Abdumalik Inomjonovich,
Farg'ona davlat unversiteti
tilshunoslik kafedrasi dotsenti,
filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori

Insonning nutqiy faoliyati barcha ijtimoiy sohalarda lisoniy vositalarni tanlash va qo'llash imkoniyatlarining rang-barangligi bilan xarakterlanadi. Umumxalq tili doirasida mavjud bo'lgan leksik, grammatik va sintaktik vositalarning muayyan maqsadlar asosida tanlanilishi nutqda xilma-xil funksional uslublarning yuzaga kelishini ta'minlaydi.

Nutqning shakllanishida ishtirok etadigan leksik vositalarining o'zaro birikishi, eng avvalo, muayyan sintaktik qonun-qoidalarga bo'ysungan holda yuzga chiqadi. Biroq, til jonli va harakatdagi sistema sifatida faqatgina qotib qolgan qat'iy qoliplardan iborat emas. Bu haqida X.Abdurahmonov va N.Mahmudov kabi mashhur tilshunos olimlar «So'z estetikasi» asarida ta'kidlab o'tganidek, «So'zlarni to'g'ri qo'llash uchun ularning konkret ma'nolarinigina bilishning o'zi yetarli emas»[1]. Badiiy matnda muallif nutqining induvidualligi eng yuqori darajaga ko'tariladi. Ijodkor o'z nutqi orqali kitobxon ruhiyatiga yanada kuchliroq ta'sir ko'rsatish, nutqning o'ziga xos emotsional-ekspressiv bo'yog'ini oshirish uchun so'zlarning o'z leksik ma'nosidan boshqa, tubdan farq qiluvchi ko'chma ma'nolarda qo'llash hamda sintaktik jihatdan esa anomal, g'ayriodatiy konstruksiyalar tuzish uchun imkoniyatlarini to'lalaigicha qo'llaydi.

Badiiy uslubda adresant va adresat o'rtasidagi o'ziga xos estetik muloqotni ta'minlovchi, an'anaviy man-

[1] Абдураҳмонов Х., Маҳмудов Н. Сўз эстетикаси. – Тошкент: Фан, 1981.